


**SOYA O'SIMLIGINING O'ZBEKISTONDA NAVLARI.****Boymurodova Sojida Ulug'bekovna***boymurodovasojida3@gmail.com**Termiz Agrotexnologiyalar va Innovatsion Rivojlanish Instituti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada dukkardoshlar oilasiga mansub soya (Glycine maxim) o'simligining xorijiy va mahaliy navlari kelib chiqishi, geobotanik tarqalishi butun jahon oziq-ovqat sanoatida tutgan o'rni, biologik tasnifi, o'sishi va rivojlanishi, yetishtirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit So'zlar: dukkardoshlar oilasi, oziq-ovqat, sanoat, geobotanika.

Soya – dukkardoshlarga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dukkakli don va moyli ekin. **Vatani** – Xitoy. **Dastlab** O'zbekistonda **1975-yildan** ekilgan. Poyasi dag'al, tik o'sadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Bo'yi 15 sm dan 2 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2-8 ta. Bargi sertuk, bandining uzunligi 8-2 sm. Guli mayda, oq yoki pushti, shingil gulto'plamga yig'ilgan. Mevasi dukkak, sariq, qora, qo'ng'ir, sertuk. Har bir dukkagida 2-6 ta don bor, tarkibida 24-45% oqsil, 13-37% yog', 20-32% uglevodlar, vitaminlar bor.



O'suv davri 75-100 kun. Soya issiqsevar va namsevar o'simlik, yorug'sevar qisqa kun o'simligi. 21-23°C da yaxshi rivojlanadi. Urug'i 6-10°C da unib chiqadi. Soya o'zidan changlanadi. Gullash davri 15-55 kun davom etadi. Vegetatsiya davrida har 10-12 kunda sug'orish kerak. Donidan olein-linol guruhiga mansub moy, oqsilga boy soya unib olinadi. Doni, pishib yetilmagan (dumbul) dukkagi ovqatga ishlatiladi. Soya unidan kolbasa mahsulotlari, sut, tvorog, qandolat, mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Somoni, to'poni, ko'k poyasi, pichani, silosi oziqa sifatida chorva mollariga beriladi.



Soyaning donidan qandli **diabet** kasalliklari uchun parhez taomlar tayyorlanadi. Soyaning asosiy oqsili – glitsinin yaxshi hazmlanadi, suvda yaxshi eriydi, achib qatiqqa aylanadi, oqsili almashtirilmaydigan aminokislotalarga boy.

Hozirgi kunda **O'zbekistonda soyaning 24 navi** yetishtiriladi.

BARAKA

Nav originori: Don dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Mannapova M, Siddikov R., Mansurov A.

O'rta bo'yli navlar guruhiga mansub. O'simlik bo'yi o'rtacha 105 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, yumaloq, sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 150,0 g. Vegetatsiya davri 126 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 36,5 s/ga. Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashoratlari bilan zararlanmadi.

2015-yildan Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida ekish uchun tavsiya qilingan.

VIKTORIYA

Nav originori: Serbiya davlatining seleksion navi.

O'simlik bo'yi o'rtacha 65 sm. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 130,0 g. Vegetatsiya davri 130 kun, takroriy muddatda 86 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 28,0 s/ga.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashoratlari bilan zararlanmadi.

2015-yildan Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Farg'ona viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

GENETIK 1

Nav originori: UzFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi ilmiy-tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Abzalov M, Jumayev F, Mirzarasulov M, Umaraliyeva G, Qilicheva O.

O'simlik bo'yi o'rtacha 45-50 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, och-sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 130,0 g. Vegetatsiya davri 87 kun. To'kilishga chidamliligi 4,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 23,6 s/ga. Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashoratlari bilan zararlanmadi.

2008-yildan Respublika bo'yicha Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

NAFIS

Nav originori: Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Saidkanova R, Sadikova N, Ibragimov F, Sattarov M, Mirzayeva I.

O'simlik bo'yi 125-150 sm. Doni yirik, silliq, yaltiroq, sariq rangda. 1000 ta donining vazni o'rtacha 176,6 g.



O'rtacha don hosildorligi: gektaridan 34,8 s/ga. Vegetatsiya davri o'rtacha 112-120 kun. Donidagi yog' miqdori 20-22%. Nav mexanizm bilan o'rishga yaroqli.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hasharotlari bilan zararlanmadi.

2012-yildan Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Toshkent viloyatida** ekish uchun tavsiya qilingan.

OLTIN TOJ

Nav originori: Don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Mannapova M, Siddikov R., Mirzaxmedov B.

O'simlik bo'yi o'rtacha 60 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, silliq, sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 160,0 g. Vegetatsiya davri 89 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 30,6 s/ga.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashorotlari bilan zararlanmadi.

2010-yildan Respublika bo'yicha Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

OYJAMOL

Nav originori: Don dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Mannapova M, Siddikov R., Mirzaxmedov B.

O'simlik bo'yi o'rtacha 70 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, silliq, sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 155,0 g. Vegetatsiya davri 94 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 28,3 s/ga. Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hasharotlari bilan zararlanmadi.

2010-yildan Respublika bo'yicha Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan

SOCHILMAS

Nav originori: UzFA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Abzalov M, Baratova.

O'simlik bo'yi o'rtacha 76 sm. Doni o'rtacha yiriklikda, och-sariq. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 136,8 g. Vegetatsiya davri 95 kun. To'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 30,0 s/ga.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashorotlari bilan zararlanmadi.

2015-yildan Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Toshkent viloyatida** ekish uchun tavsiya qilingan.

USTOZ

Nav originori: Don dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutining seleksion navi.

Nav mualliflari: Mannapova M, Mirzaxmedov B, Qodirova O.

O'simlik bo'yi o'rtacha 80 sm. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 160,0 g. Vegetatsiya davri 121 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 33,5 s/ga.



Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hasharotlari bilan zararlanmadi.

2015-yildan Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

PARVOZ

Nav originatori: Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining seleksion navi.

Navning kelib chiqishi: Yakka tanlov yo'li bilan yaratilgan.

bSaitkanova R, Sadikova N, Kerimkulova B.

O'simlik bo'yi 106-145 sm. 1000 ta donining vazni o'rtacha 167,8 g. O'rtacha don hosildorligi gektaridan 30,1 s/ga. Yotib qolish va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball. Vegetatsiya davri o'rtacha 110-120 kun.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashorotlari bilan zararlanmadi.

2010-yildan Respublika bo'yicha sug'oriladigan yerlarda Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

FAVORIT

Nav originatori: Serbiya davlatining seleksion navi.

O'simlik bo'yi o'rtacha **66 sm**. 1000 dona urug' vazni o'rtacha 155,0 g. Vegetatsiya davri 100 kun. Yotib qolishga va to'kilishga chidamliligi 5,0 ball.

O'rtacha hosildorlik: 30,0 s/ga.

Sinov yillarida qishloq xo'jalik kasalliklari va hashorotlari bilan zararlanmadi.

2012-yildan Respublika bo'yicha Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

XULOSA

Ushbu adabiyotlar sharhidan shuni xulosa qilish mumkinki, dunyo miqyosida o'z o'rniga ega bo'lgan dukkakdoshlar oilasiga mansub soya o'simligi doni tarkibida almashinmaydigan aminokislotalar mavjudligi uning ozuqaviy ahamiyatini belgilab beradi. Ushbu oqsillar faqatgina hayvon oqsillariga xos deb qaralar edi. Tekshirishlar natijasida esa ushbu oqsillar tarkibi jihatdan soya o'simligi oqsillari bilan almashtirish mumkinligi tajribalarda o'z aksini topdi. Bundan tashqari soya o'simligining iqdisodiy jihatdan muhimligi mamlakatimizda ushbu o'simlikning serhosil, har xil abiotik ta'sirlarga chidamli navlarini yaratishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, Muxtorjon, and Samandarbek Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF WHEAT PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Eurasian Journal of Academic Research* 2.11 (2022): 100-104.
2. Pirimqulova, Muxabbat Xayitovna, et al. "O'ZBEKISTONNING O'RTA MAVSUMDAGI GULKARAM NAVLARI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.2 (2023): 661-665.



3. Abdullayev, M., and S. Mamarajabov. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF MOSH PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN." *Science and innovation* 1.D6 (2022): 120-124.
4. Abdullayev, M., B. Ochilov, and S. Mamarajabov. "VARIETIES AND TYPES OF PEPPER IN UZBEKISTAN." *Science and innovation* 1.D7 (2022): 312-314.
5. Pirimqulova, M., and S. Mamarajabov. "BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF POTATOES." *Science and innovation* 1.D6 (2022): 88-91.
6. Khayitovna, Pirimkulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "PECULIARITIES OF GROWING CAULIFLOWER." *Science and innovation* 1.D3 (2022): 144-146.
7. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Cauliflower Growing Technology." *Texas Journal of Multidisciplinary Studies* 6 (2022): 8-10.
8. Xayitovna, Pirimqulova Muhabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "Types of corn grown in Uzbekistan and their peculiarities." *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences* 3 (2022): 59-63.
9. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "PISTA (PISTACIA) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 36-38.
10. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, Abdurayimova Mujgona Abdujalilovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "QAYRAG 'OCH (ULMUS) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 32-35.
11. Qizi, Jo'Rayeva Go'Zal Davlat, Shaymanov Sherzod Kamol O'G'Li, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "GO 'ZAL KATALPANING MARFOLOGIYASI VA MANZARAVIYLIK XUSUSIYATLARI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 46-49.
12. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ZARANG (ACER) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 6-11.
13. Qizi, Hamidova Dilrabo Chori, et al. "JASMIN (JASMINUM) TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 53-56.
14. Qizi, Xushvaqtova Muhlisa Nuriddin, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "ACHCHIQ BODOM TURKUMI." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 141-149.
15. Jumageldiyevna, Gulshan Nurmatova, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KIVI O'SIMLIGI HAQIDA." *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches* 1.6 (2023): 12-17.
16. Abdukarimovna, Abdukarimova Mamlakat, Kulmurotova Aziza Muhiddinovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "TOMATO



PESTS." *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities* 11.2 (2023): 427-430.

17. Faxriddinovich, Mamarajabov Samandarbek. "ZIRK (BERBERIS) TURKUMI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.16 (2023): 690-694.

18. Xudaynazarovna, Ashurova Muxlisa, Muxammadiyeva Gulchiroy Raxmonovna, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "O'G 'ITLARNING TURLARI-XUSUSIYATLARI, TUPROQ STRUKTURASIGA VA O'SIMLIK HOSILIGA TA'SIRI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 204-208.

19. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, et al. "Planting Cauliflower Seeds in the Open Field." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.5 (2022): 240-246.

20. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI." *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI* 2.18 (2023): 209-212.

21. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, et al. "Cauliflower diseases." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 1.5 (2022): 338-345.

22. Nodirovna, Nabijonova Halima, et al. "Village Farm Plants Pests." *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences* 1.5 (2022): 217-220.

23. Xayitovna, Pirimqulova Muxabbat, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "BIOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF POTATOES."

24. Xolmamatovna, Xafizova Matluba, et al. "TYPES OF SOILS COMMON IN UZBEKISTAN AND THEIR CHARACTERISTICS." *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations* 2.09 (2022): 13-19.

25. Bobirovich, Abdullayev Muxtorjon, and Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich. "VARIETIES AND ACHIEVEMENTS OF MOSH PLANT SELECTION IN UZBEKISTAN."

26. Kholmamatovna, Khafizova Matluba, et al. "PROPERTIES OF FERTILIZERS, THEIR EFFECT ON SHRUBS AND PLANTS." *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations* 2.09 (2022): 20-24.